

2020- yilning yanvar-oktabr oylarida Navoiy viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Zamonaviy iqtisodiyotda xizmatlar sohasining o'рни, mazkur sohada iqtisodiy o'sishning asosiy omillari, aynan, yangi ilmiy bilimlar, aqliy kapital, axborot texnologiyalari, moliya sektori xizmatlari, konsalting va boshqalar shakllanishi bilan izohlanadi.

2020- yilning yanvar-oktabr oylarida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari



Iqtisodiyotning ushbu sektori turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga olib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ushbu faoliyatning yakuniy natijasi tayyor mahsulot emas, balki ko'rsatilgan xizmatlardir. Xizmatlar nafaqat korxonalarga, balki jismoniy shaxslar - yakuniy iste'molchilarga ham ko'rsatilishi mumkin.

Xizmatlar sohasi bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Ushbu sohani ko'pincha rivojlangan zamonaviy infratuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko'riladi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 4 699,2 mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi 581,1 mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 104,8 % ni tashkil etdi.



O'sish sur'ati

• 104,8 %

Hajmning o'sishi


• 581,1
mlrd. so'mga

Xizmatlar hajmi

• 4 699,2
mlrd. so'm

Xizmatlar – iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmini taqqoslanishi, mlrd. so'm




2020- yilning yanvar oyiga nisbatan joriy yilning oktabr oyida (diskret oy) ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 172,6 mlrd. so'mga o'sdi va 581,1 mlrd. so'mga yetdi.

Taqqoslash uchun: o'tgan yilning shu davrida ularning hajmi 157,6 mlrd. so'mga o'sgan va 485,5 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2020- yil IX diskret (sentabr) oyining hajmiga nisbatan taqqoslaganda, 2020- yil X diskret (oktabr) oyining hajmi 9,4 mlrd. so'mga kamaydi.

Taqqoslash uchun: 2019- yilning IX va X diskret oylari o'rtasidagi farqi 6,1 mlrd. so'mni tashkil etgan.

















Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumdorligi va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2020- yilning yanvar-oktabr oylarida)

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	4 699,2	104,8
<i>shu jumladan:</i>		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	203,0	111,5
Moliyaviy xizmatlar	1 042,2	132,5
Transport xizmatlari	862,2	102,5
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	742,8	104,1
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	163,9	87,5
Savdo xizmatlari	1 501,8	96,3
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	82,5	90,6
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	153,9	96,3
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	57,6	105,5
Ijara xizmatlari	73,9	97,9
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	69,3	97,4
Shaxsiy xizmatlar	105,7	96,3
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	208,8	117,6
Boshqa xizmatlar	174,4	87,4

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. Shunday qilib, 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida ularning ulushi 32,0 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar moliyaviy xizmatlar (22,2 %), transport xizmatlari (18,3 %), me'morchilik sohasidagi xizmatlar bo'yicha (4,4 %) qayd etildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning tarkibi

Eng yuqori ulush			Eng past ulush		
	Savdo xizmatlari	32,0 %		Yashash va ovqatlanish xizmatlari	3,5 %
		34,3 %			4,1 %
	Moliyaviy xizmatlari	22,2 %		Ta'lim sohasidagi xizmatlar	3,3 %
		18,2 %			3,3 %
	Transport xizmatlar	18,3 %		Shaxsiy xizmatlar	2,2 %
		18,5 %			2,4 %
	Me'morchilik sohasidagi xizmatlar	4,4 %		Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	1,8 %
		3,9 %			2,0 %
	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	4,3 %		Ijara xizmatlari	1,6 %
		4,4 %			1,6 %
	Boshqa xizmatlar	3,7 %		Kompyuterlarni ta'mirlash xizmatlari	1,5 %
		4,4 %			1,7 %
				Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1,2 %
					1,2 %

 Yanvar-oktabr 2019- y.

 Yanvar-oktabr 2020- y.


Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar ko'rsatish hajmlarining uncha katta bo'lmagan o'sishi kuzatildi, ularning ulushi atigi 1,2 % ni tashkil etdi. Shuningdek, nisbatan yuqori bo'lmagan ulush kompyuter va maishiy

Dastlabki ma'lumotlar

tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar - 1,5 %, ijara sohasidagi xizmatlar - 1,6 %, ko'chmas mulk bilan bogliq xizmatlar hissasi 1,8 % ga to'g'ri keldi.

Yuqori o'sish moliyaviy xizmatlar (32,5 %), me'morchilik sohasidagi xizmatlar (17,6 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (11,5 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (5,5 %), shuningdek transport xizmatlarida (2,5 %) qayd etildi. Xizmatlar sohasiga taalluqli bo'lgan boshqa barcha faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlarining pasayishi kuzatilmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari taqqoslanishi



Yashash va ovqatlanish xizmatlari hajmi sezilarli darajada (12,5 % ga) pasayishi qayd etildi. Shu bilan birga, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (9,4 % ga), savdo xizmatlari (3,7 % ga), ta'lim sohasidagi xizmatlar (3,7 % ga), shaxsiy xizmatlar (3,7 % ga), kompyuter ta'mirlash xizmatlari (2,6 % ga), shuningdek ijara xizmatlari (2,1 % ga) da pasayish kuzatildi.

Dastlabki ma'lumotlar

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutuvchi savdo sohasi ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi, shuningdek, tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, ularning turlarini yaxshilanishiga va sifatini oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2020- yilning yanvar-oktabr oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi 32,0 % ni tashkil etib, bu 1 501,8 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

Savdo xizmatlari tarkibi

(2020- yilning yanvar-oktabr oylarida)



Joriy davrda chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining to'rtidan uch qismidan ko'prog'iga, aniqrog'i 81,3 % iga to'g'ri keladi.

Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 10,9 % ga yetdi. Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda, savdo xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 7,8 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar
(2020- yilning yanvar-oktabr oylarida)

Moliyaviy xizmatlar hajmi 1 042,2 mlrd. so'mni - tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2019- yilning yanvar-oktabr oylarida ularning hajmi 748,0 mlrd. so'mga teng bo'ldi.



Ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi 22,2 % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2019- yilning yanvar-oktabr oylarida ularning ulushi 18,2 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmini 294,2 mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.



Moliyaviy xizmatlarning o'sishi 32,5 % ni tashkil etdi.


Taqqoslash uchun: 2019- yilning yanvar-oktabr oylarida ularning o'sish sur'ati 170,1 % ga yetgan.

Moliyaviy xizmatlar hajmi - moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Zamonaviy bank xizmatlarini taqdim etish uchun shart-sharoitlar yaratish uchun innovatsion bank texnologiyalarining joriy etilishi chakana xizmatlarni ko'rsatishga ixtisoslashgan raqamli banklar va ularning bo'linmalarining faoliyatini tashkil etish, masofadan turib bank xizmatlarini takomillashtirish va to'lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2020- yilning yanvar-oktabr oylarida)



Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 92,9 % ni tashkil etadi.


Joriy davrda sug'urta xizmatlarining ulushi 5,9 % oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning umumiy moliyaviy xizmatlar hajmidagi ulushi yuqori ko'rsatkichga ega emas va u 1,2 % ni tashkil etadi.

Transport sohasida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining sezilarli darajada pasayishiga qaramay, xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi ustun bo'lib qolmoqda - 18,3 %.

Avtomobil transporti xizmatlarining ulushi 86,1 % ni tashkil etdi. Avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmida yo'lovchilarni tashish katta ulushga ega.

Transport xizmatlarining tashish turlari bo'yicha tarkibi (2020-yil yanvar-oktabr oylarida)



2020- yil yanvar- oktabr oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi 65,5 % ga yetdi.

Avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida yuk tashish xizmatlari ulushi 34,5 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari



2020- yilning yanvar- oktabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 203,0 mlrd. so'm darajasida belgilandi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdagi xizmatlarning o'sish sur'ati 111,5 % ga yetdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmdagi ulushi 4,3 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, 97,1 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushida kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar - 1,4 %, boshqa aloqa xizmatlari - 0,9 %, shuningdek, noshirlik xizmatlari - 0,6 % dan tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlar

Ma'lumki, fuqarolarni yuqori sifatli va hamyonbop narxlardagi ta'lim bilan ta'minlash, jamiyat taraqqiyotini, uning kelajagini aniq belgilab beradigan vazifadir.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar

2020- yilning yanvar-oktabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 153,9 mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 3,3 % ni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 96,3 % ni tashkil etdi.




Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2020- yilning yanvar-oktabr oylarida)

O'tgan yilning shu davriga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati atigi 87,5 % ni tashkil etdi, ularning hajmi esa 163,9 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

Ushbu davrda ularning bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi atigi 3,5 % ni tashkil etdi.


Dastlabki ma'lumotlar



2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan turar joy va umumiy ovqatlanish xizmatlari hajmi 6,7 mlrd. so'mga kamaydi.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar - oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatidir.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi (2020- yilning yanvar-oktabr oylarida)




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 84,7 % bilan ustunlik qiladi.

2020- yilning yanvar-oktabr oylarida yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 15,3 % ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu - sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya-epidemiologiya profilidagi muassasalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar
(2020- yilning yanvar-oktabr oylarida)

2020- yilning yanvar-oktabr oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning hajmi 57,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Xizmatlar umumiy hajmida ularning ulushi 1,2 % ni tashkil qildi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 105,5 % ni tashkil etdi.

Ma'lumki, zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarini hisobga olgan holda, respublikaning har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining har oyda o'sishi kuzatilmoqda.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

2020- yilning yanvar- oktabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 4 684,2 ming so'mga yetdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,0 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi – 4 684,2 ming so'm

O'sish sur'ati % da, 2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan - 103,0 %

Hajmning o'sishi, 2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan - 507,7 ming so'mga

Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumdorligi va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli faoliyatlarni o'z ichiga oladi.

Xizmatlar sohasida iqtisodiy o'sishning asosiy omillari, aynan, yangi ilmiy bilimlar, aqliy kapital, axborot texnologiyalari, moliya sektori xizmatlari, konsalting va boshqalar shakllanishi bilan izohlanadi.

2020- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni - 12 920 birlik

O'tgan yilning mos davriga nisbatan ular sonining oshishi - 2 442 birlik

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati - 123,3 %

Ularning umumiy sonidagi ulushi - 64,6 %

2020- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2020- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi - 64,6 %, sanoat - 16,3 %, qurilish - 7,8 % ga yetdi.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasi 11,3 % ga to'g'ri keldi.

2020- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar yuqori ulushni (50,6 %) egallaydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 10,0 % ni tashkil etdi.



Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 4,8 % ga yetdi.


Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibidagi ulushi 1,5 % ga teng bo'ldi.

Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 2,2 % ni tashkil etdi.

Ma'lumot uchun: 2019- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida 10 478 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan. Ularning umumiy tarkibida savdo xizmatlari – 44,3 %, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 11,1 %, tashish va saqlash - 5,1 %, axborot va aloqa – 1,8 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish - 2,4 %, hamda boshqa turdagi xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar – 35,3 % ni tashkil etgan.

2020- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar sonining ko'payishi va o'sishi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



O'tgan yilning shu davriga nisbatan xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 2 442 taga ko'paydi.


Taqqoslash uchun: 2019- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, ularning soni 3 621 taga ko'paygan.

Kuzatilayotgan davrning o'tgan yilga nisbatan savdo faoliyati sohasidagi yuqori o'sishi – 40,8 % ekanligi aniqlandi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 1 894 taga ko'paydi va 6 534 taga yetdi.



Shuningdek, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq faoliyatda ham o'sish kuzatildi - 11,2 %. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 130 taga ko'paydi va 1 291 tani tashkil etdi.

2020- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining ulushi
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2020- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining hissasi 83,7 % ga to'g'ri keladi.

Taqqoslash uchun: 2019- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, ularning ulushi 79,9 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik sub'yektlariga tegishli faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining o'sishi, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

2020- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'yektlari to'g'risida ma'lumot
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2020- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, o'tgan yilning shu davriga nisbatan xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'yektlari soni 2 439 taga ko'paydi.

Natijada, ularning soni 10 815 tani tashkil etdi va o'sishi esa 29,1 % ga oshdi. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining umumiy sonida xizmatlar sohasida band bo'lganlarning ulushi 60,7 % ga yetdi.

Taqqoslash uchun: o'tgan yilning shu davrida xizmatlar sohasida band bo'lgan kichik korxonalar va tashkilotlar sonining ulushi 59,2 % ekvivalentida qayd etildi.



Dastlabki ma'lumotlar

Viloyatda xizmatlar sohasining rivojlanishi aholining o'sib borayotgan to'lov qobiliyati va imtiyozlariga, xususan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda, ayniqsa zamonaviy xizmat turlariga bo'lgan iste'molchilar talabini qondira oladigan kichik biznesning rivojlanishiga bog'liqdir.

Boshqacha qilib aytganda, bir tomondan, xizmatlarni ishlab chiqarish hajmiga uy xo'jaliklari daromadlari va imtiyozlar, xizmatlarga tariflar, boshqa tomondan - investitsiyalar, soliq, pul-kredit va davlat siyosati, ilmiy-texnik siyosat, shuningdek kichik biznesning rivojlanishi kabi omillar ta'sir qiladi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi.

Tel.: 79-223-63-31